

BUGUNGI KUNDA YOSHLARNING IJTIMOIIY- FAOLLIGIDA OILADAGI PSIXOLOGIK MUXITNING ROLI

Abdurayimov Sardorbek Odiljon o'g'li

University of Business and Science

nodavlat oliy ta'lim muassasasi pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Email: sardorabdurayimov33@gmail.com

АННОТАЦИЯ:

В этой статье с теоретической стороны освещаются проблемы, с которыми сегодня сталкивается наша молодежь при создании новой семьи, и психологически правильный подход к этим проблемам.

***Ключевые слова:** семейная психология, окружающая среда, общество, молодежь, профилактика, кризисы.*

ANNOTATION:

This article covers our young people today from the theoretical side of their problems in building a new family and their psychologically correct approach to these problems.

***Keywords:** Family Psychology, environment, society, youth, prevention, crises.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarimizni yangi oila qurishda yuzaga keladigan muammolari va ushbu muammolarni psixologik jihatdan to'g'ri yondashishlari nazariy tarafdan yoritilgan.

***Kalit so'zlari:** Oila psixologiyasi, muxit, jamiyat, yoshlar , profilaktika, krizislar.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tabor tobora kuchayib bormoqda, bu esa davlat siyosati darajasigacha kutarildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Azaldan bizga ma'lumki bizning etnopsixologiyamizda oilaga birinchi etibor qaratiladi oilani muqaddas dargox sifatida idrok etib er va xotin diniy va dunyoviy ta'limotlardan mujasamlashgan odob va axloq qoidalarga amal qilishadi. Bu esa oilaning mustaxkam devoir bunyot bo'lishiga turtki bo'ladi. Lekin bugungi kunda yangi oila qurayotgan yoshlarimiz ichida oilaga nisbatan befarqlik va psixologik jixatdan tulaqonli tayor emasliklari tufayli kuplab oilalalar parokandallika uchrayabdi. Zotan, millatning ertangi kuniga dastlab oilada poydevor qo'yiladi, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi avlod shakllanadi, milliy madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar asrab-avaylanadi, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy farovonlik va madaniy yuksalishlariga asos solinadi, mustahkamlanadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatida ham inson va uning manfaatlar ustuvor ekan, biz ko'zlagan maqsadlarga erishishda hayotimizning tayanchi va suyanchiga aylangan oilaning o'zni benihoya kattadir. Nikoh-oila munosabatlari muammosi, insoniyat jamiyati yuzaga kelgan ilk ibtidoiy davrlardan buyon eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelgan. Odamlar qachon va qanday tizimlarda yashashlaridan qat'iy nazar, oila masalasi doim alohida e'tibor ob'ekti bo'lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo'lib qoladi.

CHunki, har qanday jamiyatning taraqqiy etishi, mustahkamligi shu jamiyatda tug'ilib, shaxs sifatida shakllanadigan insonning dunyoga kelishi va voyaga yetishida bosh omil bo'lmish oilalarning barqarorligiga uzviy bog'liqdir. Har bir inson baxtli oilada tug'ilishni va yashashni istaydi. Bugungi kunda ajrashishlar, oiladagi mojarolar darajasi o'sib borayotgan tahlikali davrda bunga qaytarzda erishish mumkin? Ijtimoiy soha xodimlarining asosiy vazifalaridan biri aholi o'rtasida, mahallalarda, yoshlar orasida, oilaviy dasturlar bo'yicha ma'rifiy ishlarni olib borishdan iborat.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida Senat Kengashi qarori bilan erta turmush va erta tugʻruq holatlari hamda oilaviy ajralishlar bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etish boʻyicha 2020–2021 yillarga moʻljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Majlisda koʻrib chiqilgan masalalar yuzasidan Oliy Majlis Senati Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi», deyiladi xabarda. Eʼtibor berib qarasaq bugungi kunda yosh oilalar oʻrtasida ajrimlar soni ortib bormoqda. Psixologik va sotsiologik tadqiqotlarda bunga bir qancha sabablarni keltirishimiz mumkin. Eng katta sabablardan biri esa oilada er xotin fel atvorlarining bir biriga toʻgʻri kelmasligi oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. SHuningdek, oiladagi psixologik muhit ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib nafaqat Respublikamizda, balki butun dunyoda nikoh-oila munosabatlarining eng jiddiy jihatlaridan biri oilalarning buzilishi, ajralish asoratlarini tadqiq etish masalalariga katta eʼtibor berilayotganligining asosiy sabablaridan biri ajralish bilan bogʻliq boʻlgan bir qator nohush hodisalarning roʻy berayotganligi, notoʻliq oilalar sonining ortib borishi kabilarning kuzatilayotganligidadir. Oʻsmir qizlarimizning yosh turmush qurishi, yosh ona boʻlishi va shulardan kelib chiqadigan turli xil tibbiy, maʼnaviy va ijtimoiy asoratlar, mustaxkam oilani shakllantirishga xalaqit beradigan salbiy omillaridan biridir. Nikoh oldi tibbiy koʻrikdan oʻtish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Oila Kodeksining 17-moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiy koʻrikdan oʻtishlari maqsadga muvofiq ekanligi taʼkidlangan. Bu modda kiritilishining mohiyati shundaki, imonli, insofli va yaxshi niyatli inson uchun oila qurish, uning mustahkam poydevorda boʻlishiga qaygʻurish qanchalik muhim va majburiy boʻlsa, yoki otaona boʻlish masʼuliyati kuchli boʻlsa, oʻzidan sogʻlom zurriyot qoldirish, uni sogʻ-salomat katta qilib voyaga yetkazish, toʻgʻri tarbiya berish shunchalik masʼuliyatli.

Psixologlar va olimlarning fikricha, turmush qurish uchun eng maqbul yosh: qiz bolalar uchun 22-25 yosh, oʻgʻil bolalar uchun esa 24-30 yosh. Bu yoshga borib inson shaxs sifatida shakllanib boʻladi. Bu yoshda inson turmush qurish masalasiga

mas'uliyat bilan qaraydi. SHuningdek, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh kelgusi avlodlar salomatligiga putur yetkazuvchi omildir. CHunki qarindoshlik nikohi tufayli odatda jismoniy va aqlan nosog'lom, ya'ni nimjon, kasalmand, aqli zaif, kar-soqov, ortiq, qo'shoq, pakana yoki nuqsonli, mayib bolalar tug'iladi. Ular o'sishda tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bunday oilalardan ko'pincha yurak, buyrak xastaligi kasalligiga yo'liqqan bola tug'ilishi kuzatilmokda. Biologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, nikoh qanchalik begona shaxslar bilan tuzilsa, avlod shuncha sog'lom bo'ladi. SHuningdek, oilaviy masalalarda diniy tushunchaning bo'lishi ham katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. "Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni T: 2008 yil.
2. "Sud – psixologik ekspertizasi". H.Ruhieva, T: 2012 yil.
3. "Psixologicheskaya pomosh'ch' lyudyam, popavshim v krizisnye situatsi" – Informatsionnoe posobie dlya sotsial'nyx rabotnikov, pedagogov, psixologov. T: 2010 god.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. T: "Adolat" – 2019 yil.
5. Oliy Majlisi Senati kengashining videokonferentsiya tizimi orqali uzatilgan Tanzila Norboeva ma'ruzasidan. Toshkent: 14 iyul 2020 yil.
6. Toshkent shahri bosh imom-xatibi Nuriddin domla Xoliqnazarovning Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligida o'tkazilgan anjumanda oila munosabatlarining diniy hukmlari haqidagi ma'ruzasi. 29 iyun 2020 yil
7. Jurayev, X. O. (2023). O 'SPIRINLIK YOSHIDA SHAXSDA STRESSLI VAZIYATLARDA INDIVIDUAL KOPING STRATEGIYALARNING O 'RNI VA AXAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 512-515.

8. Odilboyevich, J. X. (2023). PSYCHOTIC AND LIMITED NEUROTIC LEVELS DURING PERSONALITY SOCIAL LIFE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(4), 27-34.

9. Odilboyevich, J. X. (2023). SHAXS IJTIMOİY XIMOYASIZLIGI VA UNING OGISHGAN XULQ-ATVORIGA TASIRIDA SHAKILANADIGAN PSIXOANALITIK HIMOYA MEHANIZMLARI ORNI VA AXAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 33(2), 186-189.

10. Odilboyevich, J. X., & Shokhrukhbek, M. (2023, April). The Role and Importance of (Ego) and (Id) in the Psyche of Children in Adolescence. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 28-33).

11. Odilboyevich, Jurayev Haydarjon. "SHAXS XAYOT DAVOMIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 16.2 (2023): 128-133.

12. Haydarjon, J. (2022). SHAXS IJTIMOİY XIMOYASIZLIGINI OGISHGAN XULQ ATVORGAGA TASIRINI IJTIMOİY PSIXOANALITIK MEKANIZMLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 9-12.